

BUVIMDAN QOLGAN SIRLI MUXAMMAS

Qurbonova Manzura Shuxratulla qizi

Buxoro davlat universiteti

4-kurs talabasi

Sayliyeva Zarina Raxmiddinovna

Buxoro davlat universiteti, PhD, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada salkam bir asr yashab o'tgan Choriyeva Barin buvidan yozib olingan muxammas va uning tarkibi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Folklor, musiqa, raqs, hunarmandchilik, xalq og'zaki ijodi, variantlilik, Buxoro, Jondor, Choriyeva Barin, muxammas, sheva, "Erali va Sherali", "Sust xotin", "Choy momo", T.Mirzayev, O.Safarov, D.O'rayeva "O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi"

Folklor barcha san'atning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko'pgina san'atlar bilan uyg'unlikka ega, shuning bilan birga hech biriga o'xshamagan o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi alohida san'at turidir. Bu soha o'z ichiga musiqa, raqs, hunarmandchilik, tasviriy, badiiy va boshqa san'atlar bilan bog'liq tasavvurlarni qamrab oladi. Boshqacha aytsak, og'zaki ijod xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida ifoda etuvchi, uning taqdiri bilan chambarchas bog'liq ijodiy jarayondir. Shuning uchun ham allomalarimiz uni el adabiyoti deb atagan. Biror bir xalqning qanday xalq ekanligini bilish uchun dastavval uning folkloriga nazar solish lozim bo'ladi.

Xalq ijodi bu chinakam ma'nodagi doimiy o'zgarish, doimiy harakatdagi san'atdir. Ya'ni xalq ijodi namunalari har galgi ijroda an'analarning davomiyligini saqlagan holda muttasil yangilanib, o'zgarib, mukammallashib boraveradi. Shuning uchun ham xalq ijodi namunalari ko'plab variantlilikka ega. Ana shu variantlilik xalq og'zaki ijodining o'ziga xosligini ta'minlab beruvchi

eng muhim jihatlardan biridir. Ajdodlarimiz hayoti qandaydir bir udumiy-marosimiy qo'shiqlar va raqslarsiz ma'no — tuzsizdek bo'lgan. ¹

“Ayni vaqtda hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan “ommaviy madaniyat”, shou-biznesning salbiy ta'siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog'i bo'lgan folklor san'atiga e'tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Holbuki, folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir. Mana shunday noyob va buyuk san'at bugungi kunda shunchaki madaniy yodgorlik namunasiga aylanib, ko'p joylarda unutilib ketayotgani, himoya va muhofazaga muhtoj bo'lib turgani – bu ham davrimizning achchiq haqiqatidir. Bu haqiqat ushbu go'zal va betakror san'atning chinakam fidoyilari sifatida siz, azizlarni hammadan ko'ra ko'proq tashvishga solayotganiga ishonaman. Folklor san'ati bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir. Shu sababli tengsiz ma'naviy boyligimiz bo'lmish mumtoz san'atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg'or fikrli olimlar va san'atkorlarning, davlat va jamoat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir”.²

Prezidentimiz aytganlaridek, ma'naviy hamda moddiy boyliklarimizni, urf-odat-u an'analarimizni saqlab qolishimiz va bus-butunligicha kelajak avlodga yetkazish bizning sharaflig burchimizdir. Quyida Buxoro viloyati Jondor tumani Shodila qishlog'ida yashab o'tgan Choriyeva Barin buvidan yozib olingan muxammas(Buxoro shevasida)ga e'tibor qaratsak:

Eshiging oldidan o'tsam,
Gul ochildi xiyolimga
Urubsiz mushk-u anbarni
Hidi urdi dimog'imga
Xudoyimdan tilab olsam,
Sani bir kecha qo'ynimga

¹ Jabbor Eshonqul: “Folklor – millatning boqiy tarixi” (2014)

² Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik festivalida so'zlagan nutqi

Qo'limni bo'yningga taylab,
Rozidil aytsam qulog'ingga
Boshingdan tayla siynaning
Ko'nglingdan tayla kiynani
Qarako'z ko'zi giryon-giryon
Oq yuzingga bo'ldim hayron
Saning bilan sursam davron
Man sani sevdim qarako'z
San ketsang maylis buzulur
Ustingda jonim uzulur
Kichkina charvoq ichinda
Aynalaylik ikkimiz
Chilmashib chiqqan niholdek
Chalmashaylik ikkimiz
Ikki yuzi qip-qizil almadakkina
Labchangdan o'psam maylimi?
Olti botmon olti shakar
Bo'yningda tursin
Kecha bergan va'dang
Ko'nglingda tursin.

Mazkur muxammas (Buxoro shevasida) ning yaratilish tarixi ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Barin buvi bu muxammas(Buxoro shevasida)ni o'zlaridan oldin yashab o'tgan bir qarindoshlaridan (amma buvilaridan) eshitib yodlab olgan ekanlar. Buvi muxammasni to'y-marosimlarda, tantanalarda, hamda oilaviy yig'inlarda, yaqinlari - farzand-u nabira-abira va chevaralari yig'ilishgan paytlarda aytib, insonlarga xush kayfiyat ulashib kelganlar. Muxammasning asrlar osha bizning qo'limizgacha yetib kelishida Barin buvining hissalarini anchagina salmoqlidir. Barin buvi salkam bir asr (ya'ni 94 yosh) yashaganlar.

Mazkur muxammasning til uslubi sodda, tushunarli bo'lganligidan yodlab olish uchun juda qulay. Tarkibi sheva so'zlardan, aynan Buxoro shevasidagi

so'zlardan unumli foydalanilgan holda tuzilgan. Xususan, xiyol so'zi sheva so'z bo'lib, xayol tarzida adabiy tilda qo'llaniladi. Taylamoq so'zi, ya'ni tashlamoq ma'nosida, siyna so'zi ko'chma ma'noda dil, qalb, yurak ma'nosida kelgan. Misol uchun: Bulbul uchib, qo'nar zog'lar, Siynam to'la alam-dog'lar. "Erali va Sherali".

Kiyna so'zi esa, xurofiy tushunchaga ko'ra, go'yo suqlanib qarash ta'sirida "kiradigan" kasallik, og'riq. Bunga so'zning magik qudratiga asoslanuvchi kinna, badik, avrash... hamda mavsum-marosim qo'shiqlaridan "Sust xotin", "Choy momo" kabilar mansub.

Buxoro shevasidagi so'zlarda ko'pincha uchrab turadigan "o" tovushining "a" lashgan ko'rinishlarini uchratasiz. Mazkur muxammasda ham bu kabi so'zlar uchraydi. Qarako'z—qorako'z, san—sen, alma—olma kabi so'zlardan foylanilgan.

Bundan tashqari "j" tovushining "y" tarzida talaffuz qilinishi: maylis—majlis. So'zlar tarkibidagi harflarni o'zgartirib qo'llash orqali: aynala—aylana, chilmashmoq—chirmashmoq, chalmashmoq—chalishmoq

Muxammasga diqqat bilan qaralsa, qo'shimchalar orasida ham o'zgarish bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. "Almadakkina" so'zida ham o'zak, ham qo'shimcha qismida o'zgarish sodir bo'lgan.

T.Mirzayev, O.Safarov, D.O'rayevalar harakatlari natijasi o'laroq vujudga kelgan "O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi" nomli kitobda ham mazkur muxammasga o'xshash bo'lgan oilaviy-maishiy marosim qo'shiqlari bobida "jarlar" turkumidan o'rin olgan jarni uchratishimiz mumkin.

Eshiging oldidan o'tdim,

Gul ochildi xayolimda.

Birovning so'ziga kirib,

Yana o't solma jonimga.

Birovga pistazor kordir,

Birovga rustazor bordir.

Asal-parvarda deb so'rdim,
Labingdan o'z xayolimcha,
Huy-huy-huy, huy bale!
Huy-bala-bale, huy bale!
Labimni labga qo'yganda,
Qo'lim bo'yningga o'ralgay.
Hazonon o'ldirar bo'lsang,
Soching birla bo'g'ib o'ldir.
Qilich birla chopar bo'lsang,
Qo'ling qonimga bo'yalgay.
Huy-huy-huy, huy bale!
Huy-bala-bale, huy bale!

Yuqorida ko'rib o'tgan she'r va qo'shiqlarimiz xalqimizning bebaho ma'naviy boyliklaridir. Biz yoshlar ularni asrab-avaylab kelajak avlodlarga ham bus-butunligicha yetkazishimiz darkor.

Biz oyoq qo'yib turgan tuproq zarrasidan tortib, nafas olayotgan havomizgacha, farzandning tug'ilishidan to insonlar yoshini yashab, oshini oshab vafot etgunga qadar bo'lgan barcha jarayonlar, marosimlar, yashash tarzimiz, ongimiz, fikrimiz, tilimiz, kuyimiz-u qo'shig'imizgacha barchasi aytilgan-aytilmagan, to'qilgan-to'qilmagan, yozilgan-yozilmagan folklor. Bizni folklor o'rab turibdi, zaminimiz ham folklor, osmonimiz ham. Olam va hayotning o'zi folklor. Faqat uni baxshilar va ijodkorlarga o'xshab o'qiy olishimiz kerak. Dunyoviy bilimlar, adabiyot, umuman har qanday san'at eshigiga yo'l mana shu milliy boylikni anglashdan, o'zingga, ruhiyatingga singdirishdan boshlanadi. Xalqimizning o'ziday sodda, o'ziday donishmand, ulug' va boqiy bu meros o'zbek degan nomni har yerda va har doim ulug'lab turaveradi. Chunki folklor deb atalgan meros xalqning hamisha uyg'oq va boqiy tarixidir. Bundan yuz yil muqaddam buyuk o'zbek shoiri Abdulhamid Sulaymon o'g'li – Cho'lpon “Adabiyot yashasa, millat yashar!” degan otashin da'vat bilan maydonga chiqqan

edi. Hayot va tarix sinovlaridan o'tgan teran ma'noli bu so'zlar bugun ham o'z ahamiyati va qimmatini yo'qotgan emas. Darhaqiqat, adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jabbor Eshonqul: "Folklor – millatning boqiy tarixi" (2014)
2. T.Mirzayev, O.Safarov, D.O'rayevalar "O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi"
3. O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi 5 JILDLI TAHRIR HAY'ATI: A.MADVALIYEV, N.MAHKAMOV, N.MAHMUDOV (rahbar), D.XUDOYBERGANOVA, O.ODILOV Abdurahob Madvaliyev tahriri ostida "O'zbekiston nashriyoti" Toshkent – 2021
4. O.Narjigitov, F.Tovboyeva "Barkamol avlodni tarbiyalashda o'zbek xalq og'zaki ijodining o'rni" (uslubiy qo'llanma) Toshkent-2014
5. Jabbor Eshonqul "Folklor: Obraz va talqin" Qarshi "Nasaf" nashriyoti 1999
6. Shahnoza Nazarova "Xayol va haqiqat folklor va teologiya kesimida" Toshkent "Mumtoz so'z" 2013
7. Madayev.O. "O'zbek xalq og'zaki ijodi".-T.:Mumtoz so'z,2010
8. Madayev.O., Sobitova.T: "Xalq og'zaki poetik ijodi".-T.:Sharq,2010
9. www.ziyonet.uz
10. diss.natlib.uz